

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA "NAVOIYXONLIK KECHASI" NI
O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

Sheripboeva Dilfuza Fayzullaevna

Qoraqolpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 47-sonli DMTT direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lismi tashkilotida "Navoiyxonlik kechasini" o'tkazishda tarbiyalanuvchilar xulq-atvorini ushubu ma'naviy-ma'rifiy tadbir bilan doimiy korreksiya qilib borishning o'ziga xos ilmiy-nazariy yo'llari tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lismi tashkiloti, Ilk Qadam, Alisher Navoiy, oila, hikmatlar.

Annotation: This article analyzes the unique scientific-theoretical ways of constantly correcting the behavior of students with this spiritual-educational event during the "Navoi Khan Night" in the preschool educational organization.

Key words: Preschool education organization, Ilk Kadam, Alisher Navoi, family, wisdom.

Sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodni shakllantirish, uzlusiz ta'lismi tizimining birlamchi bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lismi kompleks rivojlanterish bugunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ushbu masala 2017 yildan boshlab davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimizning 2018 yil, 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lismi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 9 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lismi sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlanterish, maktabgacha ta'lismi tashkilotiga bolalarni qabul qilishning samarali tartibini joriy qilish, maktabgacha ta'lismi tashkilotini o'quv tarbiyaviy adabiyotlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lismi sohasida qonun xujjalari va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir qator vazifalar belgilab berildi.

Shulardan kelib chiqib yosh avlodni tarbiyalashda Buyuk bobokolonlarimizning moddiy va ma'naviy merosini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatish, ma'rifatparvar bobolarimizning ulkan ma'naviy merosi haqida bolalarga tushunchalar, qarashlar alohida o'rin tutadi. Qolaversa "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi va Maktabgacha ta'lismi vazirining 143-sonli "Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida ma'naviyat kunlari va soatlarini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lismi tashkiloti tarbiyalanuvchilariga Buyuk shoir va so'z mulkinining sultonii Alisher Navoiyning tavalludi munosabati bilan har yili maktabgacha ta'lismi tashkilotida "Navoiyxonlik kechasi" ma'naviy-ma'rifiy tadbir rejasini ishlab chiqib ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlarda qo'llanildi.

So'z mulkinining sultonii, Hazrat Alisher Navoiy fevral oyida tavallud topgan kunlarini nishonlash uchun barcha maktabgacha ta'limi tashkilotlarida bayramlar tashkil etiladi. Buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish bir kunlik bayram bilan emas, kerak bo'lsa inson hayotining butun bir umri ham yetmasligini yaxshi bilamiz. Shunday bo'lsada maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalik olamining fevral oyiga Buyuk allomalar oyligi sifatida har bir kun buyuk allomalarimiz fikri, zikri bilan yashashlari uchun maktabgacha ta'lismi tashkiloti pedagoglari kundalik faoliyatni noan'anaviy usulda rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni ertalabki

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

soatlardagi suhbatlarda A.Navoiy bobomizning bolaligi, ular yaxshi ko‘rgan xalq o‘yinlari, ular haqida to‘qilgan rivoyatlarni bolalarga o‘qib berish, mashg‘ulotlarda ruboiy va g‘azallarini o‘qib berish va mazmunini tushuntirish, badiiy adabiyot to‘garaklarida yodlatish, asarlaridan kichik sahna ko‘rinishlari tayyorlash, Oybekning Navoiyning yoshligi, T.Adashboevning Navoiy bobomlar she’rini o‘qib berish kabi ta’limiy ishlarni amalgaga oshirish bilan birga “Ilk Qadam” o‘quv dasturi asosida belgilangan mashg‘ulotlarni tashkil etishda ham buyuk allomalar ruhi kezib yursa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun tarbiyachi har bir mashg‘ulot turiga qarab bolalarga bugungi chizgan surat yoki bugun yasagan qurish-yasash ishlarimizning chiroylisi Alisher Navoiy bobomiz tug‘ilgan kunlariga sovg‘a bo‘ladi. Shuning uchun ishlarimiz chiroyli bo‘lsin degan jumlalar bolalarga kuchli ta’sir etadi va shoshilmay chiroyli ishlashga harakat qiladilar. Ijodiy ishslash jarayonida Alisher Navoiy g‘azallaridan musiqli daqiqa sifatida foydalanish zarur. Xalqimiz bezizga qush uyasida ko‘rganini qiladi- deb aytmagan. Bugun biz bolalarimizga mumtoz navolar va ular hayoti, ijodi haqida gapirib berish bilan birga, o‘zlarini ishtirokchiga aylantirishimizning samarasi ertaga bolalarimizning shaxs sifatida shakllanishida ko‘rinadi. Bolaning olti yoshgacha olgan bilimi uning hayotini 90%ini tashkil qiladi degan fikrga tayangan holda har bir oylarni o‘ziga xos nomlar bilan nomlab tashkil qilsak, maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda yangicha yondashuv izsiz ketmaydi. Aynan fevral oyi Alisher Navoiy bobomiz tavallud topganini hisobga olsak “Buyuk allomalar” oyligi nomlanishini namunasini tavsiya qilamiz.

Nº	Oylar nomi	Mavzusi	Izoh
1	Fevral	Buyuk allomalar oyligi	So‘z mulkinining sultoni A.Navoiy, bobomizning tavallud topgan kunlarini nishonlash bilan birga, ertalabki va kechki soatlarda ularning kuy-qo‘shiqlarini bolalarga eshittirish, allomalarimizning bolaligi xaqida kichik sahna ko‘rinishlarida bolalarni ishtirokchiga aylantirish, ruboilyari va g‘azallarini o‘qib berish, yodlatish, ularga atab tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida ijodiy ishlarni tayyorlash va ko‘rgazmalar tashkil etish, bu ishlarga ota-onalarni ham jalb etish

Mana shunday tadbirlar bir kun emas, bir oy davomida turli qiziqarli mavzularni kashf etib tarbiyachilar tomonidan tashkil etilsa, xamma narsaga qiziquvchan bolalarimiz ongida ma’naviy dunyoqarash, milliy iftixor, g‘urur tuyg‘ulari barq uradi. Oиласига, mahalla ko‘yiga, yaqinlariga va Ona-vataniga mehrli muhabbatli avlodlar bo‘lib voyaga yetadilar.

Bog‘chada tarbiyalanuvchilarni chiroyli gapirishga o‘rgatish, mantiqiy va taniqidiy fikrlashni hamda o‘z nutqlarini takomillashtirishda muntazam ravishda Alisher Navoiyning hikmatlarini o‘rgatib borish lozim bo‘ladi. Bu borada quyidagi hikmatlar bolalar tarbiyasi uchun benihoya xizmat qiladi.

1. Kishining odobi uning boyligidan yaxshidir.
2. Oxirat savobi dunyo rohatidan yaxshidir.
3. Til zarbasi – tish og‘rig‘idan kuchliroq.
4. Ko‘p toatdan–oz ma’rifat yaxshi, aqlli dushman axmoq do‘stdan yaxshiroqdir.
5. Yomon do‘st – shaytondir.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

6. Til sukuti-inson salomatligi.
7. Seni yomonlikka boshlagan kishi dushmaningdir.
8. Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi.
9. Muloyim so'z — vahshiyarni ulfatga aylantiradi; sehrgar — ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi.
10. Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma — kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. Tili yomon odam — xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi.

Alisher Navoiy hazratlari Samarqandda o'qib yurgan kezlarida Buxoroyi sharifni ziyorat qilishni orzu qilibdilar. Samarqandda to'xtab o'tadigan karvonlarga qo'shilib, bir guruh do'stlari bilan Buxoroga yo'l olibdilar.

Karvon yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, Karmanadan o'tib "Malik robot" karvonsaroyiga kelib to'xtabdi. Yo'lovchilar dam olib, tuyalar va otlarini sug'oribdilar. Meshlarni to'ldirib suv olibdilar. Karvonda ketayotgan Navoiy hazratlari yon-atrofidagi cho'l-u sahrolarni kuzatib, o'nga tolibdilar. Malik robot va Sardobani barpo etganlar ruhiga tilovat qilibdilar.

"Qani endi, mening Farhodlarim, Shirinlarim shu bepoyon sahrolarga kelib, shu joylarni obod qilsalar, suv chiqarib, bog'-rog'lar barpo qilsalar, imoratlar, yo'llar, masjid madrasalar, shifoxonalar barpo etsalar, sahrolar o'rniда go'zal bir yurt bunyod bo'lsa," deb orzu qilgan ekanlar Alisher Navojy.

Oradan asrlar o'tib, Xudoning marhamati va bobomizning iltijolari, xalqimizning mehnati evaziga tilovat o'qilgan joylar bog'-rog'ga aylanib, shoir nomiga "Navoiy" viloyati deb atalibdi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan kelib chiqib buyuk allomalarmiz haqida tushunchalar berish lozim. Buyuk allomalarimizdan Alisher Navoiy ijodi bilan yaqindan tanishib chiqish, tarbiyanuvchilarni milliy vatanaparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. So'z mulkinining sulton A.Navoiy, bobomizning tavallud topgan kunlarini nishonlash bilan birga, ertalabki va kechki soatlarda ularning kuy- qo'shiqlarini bolalarga eshittirish, allomalarimizning bolaligi haqida kichik sahma ko'rinishlarida bolalarni ishtirokchiga aylantirish, ruboilylari va g'azallarini o'qib berish, yodlatish, ularga atab tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy ishlar tayyorlash va ko'rgazmalar tashkil etish, bu ishlarga ota-onalarni ham jaib etish ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'naliшhlaridandir.

Xulosa qilib aytganda bog'chada "Navoiyxonlik kechasini" o'tkazishda quydagi tavsiyalar o'rniли deb o'laymiz:

1. Alisher Navoiyga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ko'proq ishlab chiqarib maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bepul asosda tarqatish;
2. Alisher Navoiyga oid multiplikatsion filmlar, multfilmlar, videoeroliklarni ishlab chiqarib maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tarqatish;
3. Alisher Navoiy bobomiz haqida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyanuvchilariga ma'lumot berishda didaktik materiallarni ko'proq ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
4. Alisher Navoiy haqida hududlarda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni yo'lga qo'yish.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

Foydalangan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev “Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan birga quramiz” 2019 27 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3305-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019 yil 8 may PQ-4312 sonli qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sun “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. mdo.uz
6. www.ziyouz.com kutubxonasi